



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 395-402 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI



Sattoriy Fayzulloh Abdijabbor o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
"Moliya" kafedrası katta o'qituvchisi
Email: sattoriy.fayz97@gmail.com

Annotatsiya: Davlat qarzi boshqaruvi mamlakatning fiskal barqarorligi va makroiqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri, uning boshqarish mexanizmlari hamda O'zbekiston sharoitida samarali boshqaruv strategiyalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, fiskal barqarorlik, iqtisodiy o'sish, qarz boshqaruvi, fiskal siyosat.

Abstract: Public debt management is one of the key factors that directly influences a country's fiscal stability and macroeconomic development. This article analyzes the impact of public debt on economic growth, its management mechanisms, and effective governance strategies in the context of Uzbekistan.

Keywords: public debt, fiscal stability, economic growth, debt management, fiscal policy.

Аннотация: Управление государственным долгом является одним из ключевых факторов, оказывающих непосредственное влияние на фискальную стабильность и макроэкономическое развитие страны. В данной статье анализируется влияние государственного долга на экономический рост, его механизмы управления и эффективные стратегии управления в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: государственный долг, фискальная стабильность, экономический рост, управление долгом, фискальная политика.

Kirish

Davlat qarzi zamonaviy iqtisodiy siyosatning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligi bilan uzviy bog'liq. Ko'plab mamlakatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish maqsadida davlat qarzidan foydalanadilar. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida global iqtisodiyotning kengayishi ortidan davlat qarzlari hajmi sezilarli darajada oshdi va xalqaro moliyaviy institutlar bu jarayonga e'tiborni kuchaytirdi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki kabi tashkilotlarning hisobotlariga ko'ra, so'nggi yillarda davlat qarzining umumiy hajmi global yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbatan ortib bormoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida

hukumatlarning fiskal rag'batlantirish choralari natijasida davlat qarzi yanada oshdi. Shu sababli, davlat qarzini samarali boshqarish muhim masalaga aylandi, chunki uning noto'g'ri boshqarilishi makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga jiddiy xavf solishi mumkin.

Davlat qarzi – bu hukumat tomonidan kreditlar yoki obligatsiyalar chiqarish orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayoni bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy strategiyasiga bog'liq holda boshqariladi. Davlat qarzi mahalliy va xalqaro bozorlarda rasmiy sektor va xususiy investorlardan jalb qilinadi hamda bu qarzlar milliy valyutada yoki xorijiy valyutada bo'lishi mumkin.

Hukumatlar davlat qarzini quyidagi maqsadlar uchun jalb qiladilar:

- makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash – iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat xarajatlarini oshirish orqali bozor talabini qo'llab-quvvatlash;
- infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish – yo'llar, elektr energiyasi tarmoqlari, suv ta'minoti va boshqa yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish;
- ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish – ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya dasturlariga mablag' ajratish;
- tashqi savdo balansini muvozanatlash – mamlakatning import va eksport o'rtasidagi nomutanosibliklarini qoplash.

Har qanday iqtisodiy vosita singari, davlat qarzining ham ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Agar davlat qarzi noto'g'ri boshqarilsa yoki haddan tashqari oshib ketsa, quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1. Foiz to'lovlarining ko'payishi – Hukumat qarzning asosiy summasidan tashqari foiz to'lovlarini ham amalga oshirishi kerak. Bu esa davlat byudjetining katta qismini foiz to'lovlariga yo'naltirishga majbur qiladi va sog'liqni saqlash, ta'lim hamda boshqa ijtimoiy sohalarga kam mablag' ajratilishiga olib keladi.

2. Xususiy sektor investitsiyalarining qisqarishi – Davlat qarzining yuqori darajasi foiz stavkalarining oshishiga olib keladi, bu esa xususiy sektor kredit olish imkoniyatlarini cheklaydi va investitsion faollikni susaytiradi.

3. Makroiqtisodiy beqarorlik – Agar davlat qarzi haddan tashqari oshsa, investorlarning ishonchi pasayadi va bu milliy valyuta kursining beqarorligiga hamda kapital oqimining kamayishiga olib kelishi mumkin.

4. Yuqori soliqlar va tejamkorlik choralari – Hukumat qarz yukini kamaytirish maqsadida soliqlarni oshirishi yoki ijtimoiy xarajatlarni qisqartirishi mumkin. Bu esa aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Tashqi kreditorlarga qaramlik – Agar davlat qarzi xorijiy valyutada bo'lsa, milliy valyuta qadrsizlangan taqdirda, bu qarzni qaytarish yanada qiyinlashadi. Natijada, xalqaro kreditorlar hukumat siyosatiga ta'sir o'tkazishi mumkin.

6. Kelajak avlodlarga yuk – Davlat qarzining ortishi kelajak avlodlar zimmasiga qo'shimcha moliyaviy yuk yuklaydi va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Davlat qarzi iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda muhim moliyaviy vositalardan biri hisoblanadi. Biroq, uning samarali boshqarilmasligi moliyaviy beqarorlikka, yuqori foiz stavkalariga va iqtisodiy qaramlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli, davlat qarzini boshqarish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqilishi, xarajatlar optimallashtirilishi va investitsiyalar jalb qilinishi zarur. O'zbekiston sharoitida

davlat qarzini samarali boshqarish milliy iqtisodiy barqarorlik va mustahkam rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Rikardo ekvivalentligi gipotezasi (REH) shuni ta'kidlaydiki, davlat xarajatlarining oshishi va natijada davlat qarzining ko'payishi iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi, chunki bu jarayon xususiy jamg'armalar hajmida mutanosib o'zgarishlarga olib keladi. Devid Rikardo o'z tadqiqotlarida shuni ilgari suradiki, hukumatning daromadlarini shakllantirish usuli—solliqlar yoki qarz chiqarish orqali—ma'lum sharoitlarda real iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatmaydi. Ushbu tamoyil Rikardo tomonidan "Funding System" (1820) va "On the Principles of Political Economy and Taxation" (1877) asarlarida batafsil yoritilgan bo'lib, u hukumat qarzlarning resurslarni taqsimlash va iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilgan.

XX asrda Robert Barro va Jeyms Byukenan Rikardoning g'oyalarini yanada rivojlantirib, "Are Government Bonds Net Wealth?" va "Is the Public Debt Equivalent to Taxation?" nomli ilmiy maqolalarini chop etishdi. Ushbu tadqiqotlar natijasida Barro-Rikardo ekvivalentlik gipotezasi shakllandi. Ushbu gipotezaga ko'ra, davlat qarzi iqtisodiy agentlar o'rtasidagi moliyaviy resurslarning taqsimlanishiga ta'sir qiladi, ammo umumiy iqtisodiy o'sishga ta'sir qilmaydi (Barro, 1989).

Byukenan (1976) fikriga ko'ra, davlat qarzi faqat xususiy iste'mol va jamg'arma qarorlariga ta'sir qiladi, lekin umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlariga hissa qo'shmaydi. Bu shuni anglatadiki, ichki va tashqi davlat qarzidagi o'zgarishlar asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (ishlab chiqarish, sarmoya kiritish hajmi va h.k.) bilan bog'liq emas va iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishiga bevosita ta'sir qilmaydi (Barro, 1989). Neoklassik nazariya nuqtai nazaridan olib qaraganda ham, davlat qarzining o'sishi natijasida yuzaga keladigan fiskal kengayishlar iqtisodiyotning umumiy samaradorligiga ta'sir qilmaydi va fiskal siyosatni samarasiz deb hisoblaydi (Pereira & Rodrigues, 2001). Shu sababli, Barro-Rikardo ekvivalentlik nazariyasi davlat qarzlarni iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vositasi sifatida qo'llab bo'lmasligini ta'kidlaydi (Barro, 1989).

Davlat qarzining iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri

REHga qarama-qarshi yondashuvlardan biri shundaki, ortib borayotgan davlat qarzi makroiqtisodiy barqarorlikni buzib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi. Qarz yukining haddan tashqari ortishi (Debt Overhang Hypothesis) nazariyasiga ko'ra, davlat qarzining ko'payishi xususiy sektor investitsiyalarining kamayishiga olib keladi va iqtisodiy faollikni pasaytiradi (Reinhart et al., 2012). Ushbu nazariyani birinchi bo'lib Mayers (1977) ilgari surgan bo'lib, u byudjet taqchilligining kuchayishi xususiy sektorning kelajakdagi optimal investitsiya qarorlariga salbiy ta'sir qilishini ta'kidlagan.

Mazkur qarash neoklassik va endogen o'sish modellarida ham qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu modellar ortib borayotgan davlat qarzi fiskal intizomni susaytirishini va kelajakda solliqlarning oshishiga olib kelishini ta'kidlaydi (Diamond, 1965; Meade, 1958; Modigliani, 1961). Diamond (1965) tahlillarida ichki va tashqi davlat qarzining o'sishi kapital zahiralari shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini, kelajakda esa solliqlarning ko'tarilishi natijasida xususiy sarmoyalarning kamayishini ta'kidlagan.

Davlat qarzining haddan tashqari ortib ketishi natijasida moliyaviy beqarorlik yuzaga kelishi mumkin. Agar investorlar hukumatning qarz to'lash qobiliyatiga shubha

qilsa, ular yuqori foiz stavkalarini talab qilishlari yoki kredit berishdan bosh tortishlari mumkin, bu esa moliyaviy inqirozga olib keladi.

Ba'zi iqtisodiy nazariyalar esa davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ta'kidlaydi. Bu yondashuv Adolf Vagnerning "Davlat faoliyati ortib borishi qonuni", Keynschilar fiskal multiplikatori va an'anaviy davlat qarzi nazariyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

An'anaviy nazariyaga ko'ra, hukumat mamlakat ichki investitsiyalari va jamg'armalar o'rtasidagi tafovutni qoplash uchun xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishi lozim (Pattillo, Poirson & Ricci, 2002). Boshqa tomondan, Keyns nazariyasi davlat qarzi hisobidan moliyalashtiriladigan hukumat xarajatlari soliq hisobidan moliyalashtiriladigan xarajatlarga qaraganda ko'proq iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligini ilgari suradi (Kasasbeh, 2021).

Keynsiyalik nuqtai nazardan, davlat xarajatlarining o'sishi xususiy sektor faoliyatini rag'batlantiradi va natijada xususiy investitsiyalarni jalb qiladi (Elmendorf & Mankiw, 1999). Elmendorf va Mankiw (1999) ta'kidlaganidek, davlat qarzi orqali iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslar kiritilishi natijasida umumiy talab ortib, iqtisodiy faollik kuchayadi va qisqa muddatli milliy ishlab chiqarish hajmi oshadi.

Bundan tashqari, ba'zi tadqiqotchilar ham davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri borligini isbotlaganlar (DeLong & Summers, 2012; Greiner, 2006; Gulde, Pattillo & Christensen, 2006). Ushbu tadqiqotlar davlat qarzining samarali boshqarilganda iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Tahlil va Natijalar

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonning davlat qarzi 2,1 milliard dollarga oshib, umumiy hajmi 37 milliard dollardan ortgan. Ushbu tendensiya O'zbekistonning fiskal siyosati, ichki va tashqi qarz tuzilmalari hamda mamlakatning makroiqtisodiy muvozanatiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning davlat qarzi tarkiban tashqi va ichki qarzlardan iborat bo'lib, 2024-yilning birinchi yarim yilligida davlat tashqi qarzi 1,26 milliard dollarga oshib, umumiy 30,9 milliard dollarni tashkil etdi. Bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 27,7 foiziga teng bo'lib, iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, ichki qarz 842 million dollarga oshib, 6,13 milliard dollarga yetdi, bu esa YAIMning 5,5 foiziga tengdir.

O'zbekiston davlat qarzining 83 foizi tashqi qarzga to'g'ri kelishi, valyuta risklari va xalqaro bozorlarga bog'liqlikni oshirishini anglatadi. Shu bilan birga, ichki qarzning 17 foizni tashkil etishi, davlat byudjeti doirasida ichki moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatadi.

Tashqi qarzning ortishi xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlarning ishonchidan dalolat bersa ham, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin. O'zbekiston davlat ulushiga ega bo'lgan kompaniya va banklarning xalqaro moliya bozorlarida qarz majburiyatlarini jalb qilishi davlat qarz portfelining noaniqlik darajasini oshiradi. Masalan, 2019–2021-yillarda UzAuto Motors, "O'zbekneftgaz" hamda bir qancha yirik banklar tomonidan jami 2 milliard dollarlik qarzdorlik qog'ozlarining muomalaga chiqarilishi davlat moliyaviy majburiyatlarini bilvosita oshirgan.

Davlat ichki qarzining 6,13 milliard dollarga yetgani, ichki kapital bozorining rivojlanishi va davlat obligatsiyalarining jalb qilinayotganini ko'rsatadi. Ichki qarzning o'sishi davlat budjeti orqali iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirish imkonini bersa ham, ichki kredit bozoridagi resurslar hajmini qisqartirib, xususiy sektorga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1-jadval. Davlat tashqi qarzlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi

Sohalar	2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra		2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra		O'zgarish, %
	million dollar	qarzning foizi	million dollar	qarzning foizi	
Davlat tashqi qarzi, jami	29 639	100%	30 899	100%	
<i>shu jumladan:</i>					
Davlat budjetini qo'llab- quvvatlash uchun	11 738	40%	13 024	42%	11
Yoqilg'i-energetika sanoati	5 791	20%	5 741	19%	-1
Neft va gaz	2060	7%	1910	6%	-7
Elektr energetikasi sanoati	3 427	12%	3 487	11%	2
Ko'mir sanoati	304	1%	344	1%	13
Transport va transport infratuzilmasi	2771	9%	2 725	9%	-2
Temiryo'llar	1 196	4%	1 181	4%	-1
Magistral yo'llar	1 114	4%	1 129	4%	1
Havo transporti	461	2%	416	1%	-10
Qishloq va suv xo'jaligi	2 657	9%	2 750	9%	4
Qishloq xo'jaligi	1870	6%	1964	6%	5
Suv xo'jaligi	787	3%	786	3%	0
Uy-joy kommunal xo'jaligi	2 610	9%	2712	9%	4
Uy-joy qurilishi	1 364	5%	1 348	4%	-1
Ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya	847	3%	865	3%	2
Shahar va qishloqlarda infratuzilmani yaxshilash	264	1%	351	1%	33
Maishiy chiqindilarni qayta ishlash	85	0%	89	0%	5
Issiqlik ta'minoti	50	0%	59	0%	18
Tadbirkorlik va sanoat ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlash	1078	4%	863	3%	-20
Kimyo sanoati	896	3%	811	3%	-9
Sog'liqni saqlash, ta'lim, AKT va boshqa sohalar	2098	7%	2 272	7%	8

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston davlat qarzining o'sishi fiskal siyosatning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Tashqi qarz hajmining ortishi

xalqaro kapital bozorlariga bog'liqlikni oshirsa, ichki qarzning o'sishi davlat obligatsiyalariga bo'lgan talabning ortganini anglatadi. Ushbu jarayonlarni samarali boshqarish uchun davlat qarz tuzilmasini diversifikatsiya qilish, ichki va tashqi qarz balansini optimallashtirish hamda fiskal risklarni kamaytirish bo'yicha strategiyalarni amalga oshirish zarur.

Xulosa va Takliflar

Davlat qarzi boshqaruvi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida davlat qarzi darajasining o'sishi ko'plab davlatlar uchun asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston misolida olib qaralganda, so'nggi yillarda davlat qarzi hajmining ortishi iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lsa-da, uning barqaror boshqarilishini ta'minlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat qarzining haddan tashqari oshib ketishi byudjet yuklamalarining ortishiga, foiz to'lovlarining ko'payishiga, xususiy investitsiyalarni siqib chiqarishga va iqtisodiy beqarorlik xavfining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, davlat qarzini boshqarish siyosati muvozanatli bo'lishi, qarzning miqdoriy va sifat jihatdan optimal darajada ushlab turilishiga qaratilishi lozim. Shuningdek, davlat qarzining tuzilishi, qarz olish shartlari va qaytarish mexanizmlarining aniq strategiyaga asoslanganligi mamlakat moliyaviy mustaqilligini saqlash uchun muhim hisoblanadi:

1. *Davlat qarzining optimal chegaralarini belgilash.* Hukumat davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan optimal darajasini aniqlashi va ushbu me'yordan oshmasligi uchun qat'iy fiskal intizomni saqlashi kerak. Bu borada xalqaro tajriba, xususan, Yevropa Ittifoqining Maastricht mezonlari (davlat qarzining YaIMga nisbati 60% dan oshmasligi) va boshqa rivojlangan davlatlarning tajribasi tahlil qilinishi lozim.

2. *Qarz tuzilmasini diversifikatsiya qilish.* Davlat qarzining valyuta tarkibi va muddati bo'yicha diversifikatsiyalash strategiyasini ishlab chiqish zarur. Tashqi qarz va ichki qarz nisbatini optimal darajada ushlab turish, davlatning mahalliy investorlar oldidagi ishonchini mustahkamlash va ichki moliya bozorini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

3. *Foiz yuklamasini kamaytirish.* Davlat qarzi bo'yicha foiz xarajatlarini optimallashtirish uchun kredit manbalarining qulay shartlarda jalb etilishi ta'minlanishi kerak. Xalqaro moliyaviy institutlar (XVJ, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) bilan hamkorlikni kengaytirish va ularning uzoq muddatli past foizli kreditlaridan foydalanish mumkin.

4. *Byudjet intizomini mustahkamlash.* Davlat qarzi yukini kamaytirish uchun fiskal islohotlarni jadallashtirish, byudjet taqchilligini optimallashtirish va davlat daromadlarini oshirish strategiyalarini ishlab chiqish lozim. Shu jumladan, soliqlash tizimining samaradorligini oshirish, soliq bazasini kengaytirish va soliqlardan qochish holatlarining oldini olish choralari ko'rilishi kerak.

5. *Davlat qarzining shaffofligini ta'minlash.* Davlat qarzi bo'yicha barcha ma'lumotlarni ommaga ochiq e'lon qilish, qarz olish va uni boshqarish jarayonida hisobdorlikni oshirish muhim. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda davlat qarzining monitoringi va baholash tizimini takomillashtirish lozim.

6. *Makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash.* Valyuta kursining beqarorligi davlat qarzining tashqi komponentlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun pul-kredit siyosati bilan fiskal siyosatning uyg'unligi ta'minlanishi, inflyatsiya darajasi past bo'lishi va iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlari saqlanishi lozim.

7. *Davlat qarzi boshqaruvi uchun ilg'or tajribalarni qo'llash.* Rivojlangan davlatlarning davlat qarzini boshqarish bo'yicha tajribalaridan foydalanish zarur. Xususan, Yaponiya, AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning qarz boshqarish strategiyalari o'rganilishi va O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi lozim.

8. *Davlat qarzi bo'yicha risklarni baholash va prognoz qilish.* Davlat qarzining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun risklarni baholash tizimini takomillashtirish kerak. Xususan, davlat qarzi dinamikasining YaIM o'sishi, valyuta kursi va inflyatsiya bilan bog'liqligi tahlil qilinib, strategik qarorlar qabul qilinishi lozim.

Davlat qarzi boshqaruvi iqtisodiy barqarorlik va milliy moliya tizimining ishonchliligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat qarzining ortiqcha oshib ketishi fiskal barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin, shuning uchun uni samarali boshqarish talab etiladi. O'zbekiston uchun davlat qarzini boshqarish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqish, uning shaffofligini ta'minlash va samarali investitsiya loyihalariga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xususiy sektorni rivojlantirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali davlat qarziga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish mumkin. Kelgusida davlat qarzining optimal darajada boshqarilishi mamlakat iqtisodiy mustaqilligini saqlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barro, R. J. (1989). The Ricardian Approach to Budget Deficits. *Journal of Economic Perspectives*, 3(2), 37-54. <https://doi.org/10.1257/jep.3.2.37>
2. Buchanan, J. M. (1976). Barro on the Ricardian Equivalence Theorem. *Journal of Political Economy*, 84(2), 337-342. <https://doi.org/10.1086/260436>
3. Diamond, P. A. (1965). National Debt in a Neoclassical Growth Model. *American Economic Review*, 55(5), 1126-1150.
4. Elmendorf, D. W., & Mankiw, N. G. (1999). Government Debt. *Handbook of Macroeconomics*, 1(C), 1615-1669. [https://doi.org/10.1016/S1574-0048\(99\)10038-7](https://doi.org/10.1016/S1574-0048(99)10038-7)
5. Greiner, A. (2006). An Endogenous Growth Model with Public Debt, Borrowing Constraints and Human Capital. *Japanese Economic Review*, 57(1), 50-67. <https://doi.org/10.1111/j.1468-5876.2006.00355.x>
6. Meade, J. E. (1958). Is the National Debt a Burden? *Oxford Economic Papers*, 10(2), 163-183.
7. Modigliani, F. (1961). Long-run Implications of Alternative Fiscal Policies and the Burden of the National Debt. *Economic Journal*, 71(284), 730-755. <https://doi.org/10.2307/2228247>
8. Myles, G. D. (1995). Public Economics. *Cambridge University Press*.
9. Pattillo, C., Poirson, H., & Ricci, L. (2002). External Debt and Growth. *IMF Working Papers*, 02(69), 1-47. <https://doi.org/10.5089/9781451849350.001>

10. Pereira, R., & Rodrigues, P. G. (2001). Public Debt and Economic Growth: Theoretical and Empirical Evidence. *Economic Research Papers*, 32(5), 231-254.
11. Reinhart, C. M., Rogoff, K. S., & Savastano, M. A. (2012). Debt and Growth: Is There a Magic Threshold? *Journal of Economic Perspectives*, 26(3), 81-102. <https://doi.org/10.1257/jep.26.3.81>
12. Ricardo, D. (1820). *Funding System*. London: House of Commons.
13. Ricardo, D. (1877). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

